

## KASB – HUNAR MAKTABLARIDA DARSLARNI TASHKIL ETISHDA MILLIY O'QUV DARTURIGA MOS INTERFAOL O'YINLAR

*Ashurova Oftobxon Xoshimovna*  
*Farg'ona shahar kasb – hunar maktabi*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

*Eraliyeva Shirmonoy Nuraliyevna*

*Farg'ona shahar kasb – hunar maktabi*

*Tarbiya fani o'qituvchisi*

*Muhammadaliyeva Irodaxon G'ayratjonovna*

*Farg'ona shahar kasb – hunar maktabi*

*Davlat huquq asoslari fani o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga<sup>2</sup> muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy – axloqiy va intellektual rivojlanishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv – tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030 – yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi Fanlar – biologiya, fizika fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Shunday ekan biz fan o'qituvchilari o'z oldimizga o'quvchilarning xalqaro ta'lim standartlariga mos holda o'qitishimiz kerak. Buning uchun biz PISA asosida o'quvchilarning testlarga tayyorlashimiz ularga PISAning asl mohiyatini tushuntirishimiz, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishimiz kerak. Hozirgi kunda bizni oldimizdagi eng katta muammolardan biri PISA xalqaro dasturi reytingiga tayyorgarlik ko'rsatish va kuchli natijalarni egallashimiz kerak.

PISA xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi hamda ularning muammoni hal qila olsh ko'nikmalarini, masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o'quvchi yoshlarning fikr – mulohazalari va ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi.<sup>3</sup>

Fanlarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalari fani bo'lg'usi o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini orttirishga zamin tayyorlaydi. Fanlar o'qituvchisi o'zining pedagogik faoliyatida pedagogik zamonaviy texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar va kompetensiyani egallagan bo'lishi shart.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu - o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir

#### ➡ «TELEFON» o'yini

Guruh a'zolari navbat bilan o'zi tanlagan sinfdoshi 30 sekund mobaynida o'zi xohlagan fanlarga oid mavzuda gaplashadi. Kuzatuvchilar uning o'zini tutishi, sinfdoshiga bo'lgan hurmati bilan muomalasi, narigi tarafdagi gaplashuvchi shaxs bilan gaplashuvchi o'rtasidagi yaqinlik, o'zaro munosabatlarini tahlil qiladilar va kerakli maslahatlarni beradilar. O'quvchilar bu metod orqali fanlarga oid qanchalik bilim ko'nikmaga ega ekanligini aniqlash mumkin. Bu metodning ko'proq biron bob yakuni yuzasidan o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarning egallagan bilimlari yuzasidan samaradorlikni aniqlash uchun yaxshi ko'makchi bo'ladi.

#### ➡ «BOTQOQLIK» o'yini

Buning uchun karton qog'ozdan qilingan o'rtacha kattalikdagi «likopchalar» kerak bo'ladi. Ularning soni 9 ta bo'lgani ma'qul. Guruh a'zolari qator bo'lib, birin-ketin likopchalarni bosib, mavzuga oid bittadan ma'lumot aytib botqoqlikdan o'ta boshlaydilar, atrofda esa qaroqchi «timsohlarga» bor, ya'ni bu ma'lumot ayta olmagan o'quvchi timsohlarga yem bo'ladilar. Ular bo'shab qolgan tarelkalarni olib qo'yadilar. Shu tarzda o'yin davom etadi. O'quvchilar mavzuni o'yinni qiziqarliligidan ko'proq fanlarga oid tushunchalarga ega bo'ladilar.

☞ **Maqsad:** har bir guruh a'zosi tarelkadan oyoq uzmasligi, hech bo'lmaganda, bir oyoqni uchi bilan ularni bosishi kerak. Agar guruh a'zolari ittifoq bo'lib, ular harakatida muvofiqlik yuzaga kelsa, mavzuga oid qancha ko'p ma'lumotga ega bo'lishsa albatta botqoqlikdan mag'lubiyatsiz o'tadilar va birorta likopchani timsohlarga bermaydilar. Bu metod hamkorlikda ishlashga o'rgatadi. Axillikni ta'minlaydi. O'quvchilarda chaqqonlikni shakllantiradi.

#### ➡ «OMMA OLDIGA CHIQISH QILISH» o'yini

Bu o'yinga a'zolar oldindan tayyorgarlik ko'rishgani ma'qul. Chunki ma'lum vaqt davomida notiqlik mahorati va guruhga murojaat qilishning turli vositalari sinaladi va gapirish hamda eshitish san'atlari mashq qilinadi. Bu o'yinda o'quvchilarga mavzu oldindan berilgan bo'ladi. Ular mavzuga tayyorlanib kelishadi. Va ularga 3 minutdan vaqt berib shu 3 minut vaqt ichida ularga journalist, o'qituvchi bo'lish imkonini beramiz. O'quvchilar mavzu yuzasidan ma'lumotlarni huddi jurnalistlardek bayon etishlariga imkon beramiz. Bu orqali fanlararo bog'lanish nutq madaniyatini shakllanishiga imkon beramiz.

#### ➡ «INKOR ETILGANLAR» o'yini

Munozara yoki breynstorming usuli yordamida jamiyatda inkor etilganlar toifasiga kiruvchilar va ularning paydo bo'lish omillari hamda shundaylarga yordam choralari haqida fikr almashiniladi. Ma'lum muddat o'tgach, guruhning o'zida ayrim belgilar asosida a'zolar toifalarga bo'linib, trener boshchiligida tabiiy eskperiment yo'li bilan «inkor etilganlikni his qilish» o'yini tashkil etilishi mumkin. Bu metodning Fanlarviy reaksiya turlari, elektrmanfiylik, elektroliz mavzularida qo'llash juda yaxshi natija beradi. Va nima uchun inkor etilganligini sababini muhokama qilinadi.

#### ➡ “TANISHISH” o'yini

O'qituvchining ko'rsatmasiga binoan uning o'ng yoki chap tomonida turgan ishtirokchilardan bittasi bitta fanlarga oid ma'lumot aytadi. Ikkinchi ishtirokchi esa birinchisini va o'zining fanlarga oid atamalar nomini aytadi. Treningning uchinchi ishtirokchisi esa, birinchisini, ikkinchisini va o'zining Fanlarviy element nomini aytadi va shu tariqa oxirigacha davom etadi. O'qituvchining oxirgi ishtirokchisi birinchisidan boshlab, to guruh a'zolarining hammasini aytgan atamalar nomini aytadi. O'quvchilar shu tariqa atamalar nomlari bilan tanishadi. Agar o'quvchilar atamalar nomini bilsalar, ta'rif tavsifi bilan birga aytishlari mumkin.

**Maqsad:** o'quvchilar mavzuga oid atamalar tarixi, tavsifi, tarifi bilan tanishishlari mumkin.

#### “XUSHOMAD QILISH” o'yini

Guruh a'zolari bir-birlariga xushomad qila boshlaydilar.

☞ **Maqsad:** guruhdagi shaxslararo tanglikni bartaraf etish va psixoemotsionlik yengillik berish. Bu darsdan tashqari kayfiyatni ko'tarish, darsda hushkayfiyatni tashkil etish uchun ishlatiladi.

#### ➡ «INTERVYU» o'yini

Boshlovchi va protogonist interver sifatida turli toifali shaxslardan (vazir, artist, rektor, maktab direktori va hokazo) intervyu olinishi aytiladi, u o'zi bir a'zoni shu rolga tavsiya etadi. Tahlilda nima uchun aynan shu rolga tavsiya etilganligi haqida ham fikr bildiriladi. O'quvchilar bir – birlarini o'rnida bo'lish ularni harakati psixologiyasining chiqarish, yoki tarixiy shaxslarning rollarini berib darsning tashkil etishimiz mumkin.

☞ **Maqsad:** «O'zga bo'lish san'ati» va oliy darajali muloqot texnikasi mashq

qilinadi.

### ➡ “O’ziga o’zi baho berish” o’yini

Boshlovchi har bir ishtirokchi qo`liga alohida kartochkalarda atamalar so`zlarini berib chiqadi. So`zlardagi harflar vertikal ko`rinishda yozilgan bo`lib, ishtirokchi har bir harfning ro`parasiga o`sha bilan boshlanadigan o`zidagi shaxsiy sifatlarni ko`p o`ylanmay yozib chiqish kerak.

☞ **Maqsad:** shaxsning o`zini anglash va o`ziga nisbatan senzitivligini aniqlash.

### ➡ “O`ZINI TANISHTIRISH” o’yini

O`quvchilar 2 daqiqa ichida Fanlarga oib berilgan so`zga ta`rif berishi kerak. O`quvchilar qancha ko`p ma`lumot yozsa o`sha o`quvchilar g`olib hisoblanadi.

Hozirgi kunda imitatsion o`yinlar bir qator pedagogik va metodik fanlar bo`yicha ishlab chiqilgan bo`lib, ular asosan seminar va amaliy mashg`ulotlarda qo`llanilmoqda. Masalan, pedagogik-psixologik, kasbiy ta`lim, tarbiyaviy ishlar metodikasi kabi fanlar bo`yicha mashg`ulotlar (ish o`yinlari)da fan o`qituvchi, sinf rahbari, o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari va hokazolarning funksional vazifalarini tinglovchilar ularning roliga kirib, mustaqil ravishda o`zlashtiradilar.